






2021- yilning yanvar-fevral oylari uchun Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Qashqadaryo viloyatida jami **711,0 mldr. so'mlik** qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **104,0 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

2021- yilning 1- mart holatiga ko‘ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3383 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 302 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o‘tgan yilga nisbatan **6,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **69,3 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **26,7 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,4 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **16,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **22,2 %**) o‘sishidir.



Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.03.2020-yil	01.03.2021-yil	
Qashqadaryo viloyati	3081	3383	109,8
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi	808	860	106,4
Shahrisabz	130	139	106,9
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	140	148	105,7
Dehqonobod	139	152	109,4
Qamashi	168	185	110,1
Qarshi	365	401	109,9
Koson	256	284	110,9
Kitob	125	136	108,8
Mirishkor	75	84	112,0
Muborak	184	195	106,0
Nishon	109	125	114,7
Kasbi	127	154	121,3
Chiroqchi	181	207	114,4
Shahrisabz	114	118	103,5
Yakkabog'	160	195	121,4


**Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni,
2021- yil 1- mart holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qarshi sh. (25,4 %), Qarshi (11,9 %) va Koson (8,4 %) tumanlarida qayd etildi.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **78,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **134,1 %** ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **2,4 %** punktga ko'payib, **11,0 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida yirik qurilish tashkilotlari
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qarshi shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **40,6** % i yoki 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **131,5** %), Shahrisabz shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **32,1** % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,7** marta ko'p), Muborak tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **17,9** % i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,9** marta ko'p) ga to'g'ri keldi.




Qurilish ishlarining umumiyligi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan kamayishi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **62,7 %** to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-fevral oylari ko'satkichiga nisbatan **2,5** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **101,4 %** ni tashkil etgan holda **445,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **26,3 %** ni tashkil etdi yoki **187,3** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan **100,5 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **31,0** mlrd. so'm, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **680,0** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,4** % va **95,6** %ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**Hududlar kesimida qurilish ishlari.
(2021- yil yanvar-fevral oylarida)**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur’ati, % da	Jami qurilish ishlari hajmida hududlarning ulushi % da
Qashqadaryo viloyati	711,0	104,0	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi	183,3	105,5	25,0
Shahrisabz	52,3	129,2	8,1
<i>tumanlar:</i>			
G‘uzor	67,8	101,3	9,7
Dehqonobod	21,5	101,0	3,2
Qamashi	17,3	100,9	2,5
Qarshi	65,2	101,3	9,3
Koson	44,8	90,8	6,4
Kitob	49,3	101,1	7,1
Mirishkor	18,7	100,7	2,7
Muborak	41,0	117,8	4,4
Nishon	25,0	101,2	3,6
Kasbi	21,2	100,5	3,1
Chiroqchi	50,9	101,2	7,3
Shahrisabz	20,3	100,8	2,9
Yakkabog‘	32,4	101,0	4,7

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar-fevral oylarida

Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin 65,2 % i yoki **463,2** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

65,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **44,2** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlardagi ulushi 9,5 % ni tashkil etdi

9,5 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **243,9** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlardagi ulushi 52,7 % ni tashkil etdi.


52,7 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **175,1** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 37,8 % ni tashkil etdi.

37,8 %


Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi

2021- yilning yanvar-fevral oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari, mlrd. so'm.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi
Tel.: 75 221-32-47